SURHON VOHASIDAGI ZIYORATGOHLAR TIKLANISHINING MA’NAVIY AHAMIYATI ZIYORAT TURIZMI

Jalilova O‘g‘iloyAbduqodir qizi

Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumani 5-sonli umumta'lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi

Mustaqil O‘zbekiston o‘ziga xos bo‘lgan taraqqiyot yo‘lidan borayotgan hozirgi sharoitda jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish, milliy va diniy qadriyatlarni tiklashga erishish muhim vazifalardan biri sanaladi. Shu ma’noda, azaliy an’analarga asoslangan milliy mafkura mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Islom tinchlik, iymon, ehson, poklik vatanparvarlik dini ekanligi istiqlol yillarining ilk kunlaridanoq alohida ta’kidlandi. U xalqning ma’naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o‘ziga xosligi, qayta tiklanayotganligi, jamiyatimizni yaxshilash va taraqqiy ettirish yo‘lidan muvaffaqiyatli ravishda olg‘a siljitishda hal qiluvchi, ta’bir joiz bo‘lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir. Yuksak madaniyatni esa, chuqur ichki ma’na- viyatga ega bo‘lgan xalq yaratadi. Ana shu xalqgina buyuk yaratuv- chanlik qudratiga ega bo‘ladi. Shu jihatdan, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ulkan bebaho milliy qadriyatlarimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Jumladan, O‘zbekistonning birinchi prezidenti boshchiligida bu sohada muhim o‘zgarishlar amalga oshirilib, biron bir jamiyatni odamlar ongida o‘z milliy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o‘z istiqbolini tasavvur etib bo‘lmasligi ta’kidlandi.Ziyoratgohlar va u bilan bog‘liq allomalar nomi milliy madaniy-qadriyatlarning bir bo‘lagi sifatida izohlanadi. Milliy-madaniy qadriyatlar aslida muayyan xalqqa, millatga, uning ajdodu avlodlariga taalluqli bo‘lgan qimmatbaho moddiy va ma’naviy boyliklarni o‘z ichigaolib, shu xalq yaratgan tarix, madaniyat yodgorliklari, avloddan avlodga o‘tib, rivojlanayotgan merosi,

ajdodlardan qolgan ilmiy, falsafiy, madaniy, badiiy asarlar, an’ana, marosim va boshqa qadriyatlarni jamlaydi.

Jamiyatda milliy qadriyatlarni tiklash, nafaqat tarixiy merosni saqlash va kelajak avlodga yetkazish, balki, o‘z navbatida, milliy o‘zlikni anglashga, milliy his-tuyg‘u va iftixorni rivojlantirishga samarali ta’sir etadi. Jumladan, yoshlar ajdodlar ilmiy merosini qanchalik yaxshi bilsalar, bundan ma’naviy, ayniqsa, ilmiy ozuqa olsalar undan faxrlanadilar va taqlid qiladilar. Yosh avlodni bunday tarix bilan tanishtirish, ularni kelajak sari muhim qadamlar qo‘yishiga, shuningdek, o‘z ajdodlariga munosib farzand bo‘lib, voyaga yetishlarida muhim rol o‘ynaydi.

Bunda, xalqimizning zalvorli tarixiy taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan avjdodlarga munosib avlod bo‘lish uchun ularning hayot yo‘llarini o‘rgatish, qilgan amallari, ilmu irfonlaridan bahramand qilish muhim hisoblanadi. Bu jarayonda, nafaqat yoshlarni, umuman aholini madaniy-ma’rifiy hayotida asosiy fenomenlardan biri bo‘lgan ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish muhim hisoblanadi.Jahon turizmining bir qismi bo‘lgan ziyorat turizmi xalqaro miqyosda keng foydalanilib kelinadi. Ziyorat turizmi obyekt-lari deganda, mamlakat ichida odamlar diqqatini tortadigan tarixiy obidalar, buyuk shaxslar qadamjolari kabi tarixiy, ma’naviy va ma’rifiy ahamiyatga molik obyektlarni o‘z ichida birlashtiradi. Ziyorat turizmi respublikamizda qadimdan rivojlanib kelgan. O‘zbekiston hududida mustamlaka va Sovet davlati hukmronligi davrida, ziyoratgohlarga tashrif ta’qib ostiga olingan edi, allomalarning qabrlari xarobaga aylan- tirilgan, sovet yillarida ulardan omborxona, saqlovxona sifatida foydalanilganini tarixiy jarayonlar ko‘rsatadi.

Xalqaro hisobotlarda, so‘nggi yillarda 250 mln.dan ortiq kishilar aynan ziyorat maqsadida turli ziyoratgoh va o‘zlari uchun muqaddas hisoblangan joylarga borib, turistik dam olayotgani keltiriladi. Jahon mamlakatlari hududlari 11 ta ziyoratgoh mintaqalariga bo‘lib o‘rganilsa, Markaziy Osiyo

mintaqasi islom dini makro mintaqasi hisoblanadi. Shu ma’noda, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida qadimiy shaharlari, boy tarixi bilan ajralib turadigan O‘zbekistonda ziyorat turizmni rivojlantirish uchun barcha resurslar mavjud.

Aytish lozimki, turizm tinchlikni ta’minlashning muhim omili, xalqaro hamkorlikning axloqiy va intellektual asosi sifatida qaraladi. Shu munosabat bilan ziyorat va turizm muhim muammolarni, xususan xalqlarning madaniyatlararo aloqasi sharoitida jamiyatdagi ijtimoiy keskinlik muammosini hal qilish vositasiga ham aylanishi mumkin. Jahon turizmiga bag‘ishlangan Manila konferensiyasida (1980) turizmning xalqaro ijtimoiy keskinlikni yumshatish, butun dunyo davlat- lari o‘rtasidagi hamkorlik va o‘zaro tushunishni rivojlan- tirishdagi imkoniyatlari alohida qayd etilganligi bejiz emas.Ta’kidlash o‘rinliki, O‘zbekistonda din masalalari va ziyorat turizmining shakllanishi va rivojlanishiga asosiy e’tibor mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi. Garchi 1990 yilda muhaddislik ilmining yirik namoyandalaridan biri, islom olamida mashhur bo‘lgan Abu Iso Termiziyning 1200 yilligi nishonlangan bo‘lsa-da, allomaning asarlari va ma’naviy merosidan xalq bexabar edi. Olimning qabri joylashgan hudud ham yetarlicha obod etilmadi. 1991 yildan keyin, aynan istiqlol yillarida O‘zbekistonda vijdon erkinligi, din, diniy tashkilotlar va dindorlarga nisbatan davlat siyosatida tub o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Vijdon erkinligi masalasining dav- lat bilan diniy tashkilotlar o‘rtasidagi munosabati masalasida mustahkam huquqiy negiz yaratildi. Bu – O‘zbekiston Respub- likasi Konstitutsiyasi hamda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi bo‘ldi. Qur’oni Karim va hadislar nashrini amalga oshirish, islom olimlarining boy ilmiy merosini o‘rganishga yo‘l ochib berdi. Abduxoliq G‘ijduvoniy, Imom Buxoriy, Imom Moturi-diy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Abul Mu’iyn Nasafiy kabi yuzlab pir, avliyo darajasidagi shaxslarning ta’limoti o‘rganildi

deb nomlangan xalqaro seminar o‘tkazildi. 1995 yil 2 iyunda O‘zbekiston prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini Buyuk Ipak yo‘lining shakllanishida ishtirokini faollashtirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish to‘g‘risida”gi UP-1162 farmoni imzolandi. Bunday farmon va qonunlar zamirida, hududimizdagi ziyoratgoh va muqaddas qadamjolar bilan mashhur bo‘lgan Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Termiz kabi shaharlarni turizm salohiyatini oshirish vazifasi ko‘zda tutilgan edi.

1996 yil 25 sentabrda “O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligida madaniyat, fan va turizm sohasida halqaro hamkorlik boshqarmasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 335-sonli, 1997 yilda O‘zbekistonda turizmni barqaror rivojlantirish rejasi ishlab chiqildi.